

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG YULDUZI

№20 (66405)
2003 yil
19 may
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan



May oyining dilbar, totli kunlari o'z nihoyasari odim laborarekan, bolajonlar qalbida so'nggi qo'ng'iroq sadolarining jarangi akslanadi.
Yil bo'yi olingan taassurotlar, sevimli ustozlarning jonbaxsh saboqlari, maktab partasining tagliklariga kundalikdan yirtib yashirilgan yomon baholarning g'ijimlangan qog'ozlari...

yakunlanadi, deb o'ylayman.
-Ushbu yutuqlarning bosh omili nimada deb o'yaysiz?
-Bosh omil avvalo tinimsiz izlanish va mehnatda, qolaversa, o'quvchilarning bilimga chanqoqligidadir.
-Men boshqa narsani nazarda tutgandim.
-Ya'ni nimani?

ochiqroq tushuntiradigan bo'lsam, o'qish va o'qitish uslublarining o'ziga xos tomonlari bormi?
-Bilasizmi, har qanday an'anaga o'ziga xoslik bilan yondoshsangiz shunga yarasha mevalar bera boshlaydi. Chunki bizning jamiyatimizda har qanday soha e'tibor bilan gullab-yashnaydi. Jumladan, bolaning qalbi ham. Uni doimo gullayotgan daraxtga o'xshatgim keladi. Unga ohistalik bilan yondoshmasangiz, gulini to'kib qo'yasiz va undan meva o'lolmaydiz.

Hamma-hammasini bir-bir ko'ngildan
100 FOIZ kechirar
ekansan, beixtiyor yana hammasini qaytadan boshlagim, hech bir ustozning ko'nglini og'ritmay yaxshi o'quvchi bo'lgim, sinfdoshlarimni ranjitganing uchun bir-bir uzr so'rab chiqqing keladi...

Direktor bilan suhbat
Demoqchimanki, sizlar ushbu yutuqlarga qanday va qay tarzda erishdingiz? Fikrimni...

TALABA BO'LDI!

Qadim Buxoroning Jondor tumanida joylashgan 20- o'rta maktabga qadam qo'yganim zahoti, yuzlarida nurli tabassum bilan meni qarshi olgan maktab direktori Tohir aka Rajabovga bergan ilk savolim ham so'nggi qo'ng'iroq xususida bo'ldi.
-Siz bir ming ikki yuz nafardan ortiq o'quvchi tahsil oladigan eng katta ilm dargohi rahbari sifatida ushbu o'tib borayotgan o'quv yilida qanday yangiliklar bilan yuzma-yuz keldingiz?
-Savolingiz bir oz o'yantirib qo'ydi. Chunki odamni, uning ishlarini chetdan kuzatayotgan odam yaxshiroq payqaydi va o'zidan ko'ra yaxshiroq izohlaydi. Ushbu o'quv yilida duch kelgan eng yaxshi yangiligim, maktabimiz a'lo o'zlashtirish bo'yicha tumanda birinchi o'rinni egalladi. O'tgan o'quv yilida maktabimizning 37 nafar bitiruvchisi Oliy va O'rta maxsus o'quv yurtlariga talabalikka qabul qilindi. Demak, 100 foiz bitiruvchimiz talaba bo'ldi. Maktab jamoasining quvonchi cheksiz, axir shogirdlar muvaffaqiyati qaysi ustozni quvontirmaydi, deysiz. Bu yilgi o'quv yilimiz ham xuddi shunday

Жумадилла НАЗАРОВ МИРЗО АНВАР
МУСАЕВ ЖЕВРА

«ХАЙР, МАКТАБИМ!»

TE MIP SA - HOF' TAM - AMP - FOH TAP - TAP - SAR - H - H - H
- H - H A - O - GA K - Y - LIP - H - H O - H - H
- A - A - O - H B - E - R - C - H - H H - H - H - H - H - H
- H - H T - O - P - A - H H - O - K - C - A - K M - A - K - T - A - B - I - M A - H - H - H
- A - H - H M - A - K - T - A - B - I - M H - H - H - H - H - H

«Temir qanot» qaldirg'och, Tog'dan yuksak maqsadim, Tark etarkan inini. Ufqqa tutashdir yo'lim.
Duoga qo'lingni och: Tinar so'nggi qo'ng'iroq, -Olloh bersin yo'lini! Yo'lga otlana yoshlar.
Naqarot: Chehralar gulgun...
Xayr endi, maktabim! Biroq,
Bag'ringdan ketar bo'ldim. Duv-duv oqar ko'z yoshlar.
Naqarot:

Maktabimizda o'z kasbini e'zozlab kelayotgan o'qituvchilarimiz talaygina. Biologiya fani o'qituvchisi Muborakxon Abdullayeva, adabiyotshunoslarimiz Mavjudaxon Roziqova, Fotimaxon Jo'rayeva, Shohsanam Teshayeva, tarix fani o'qituvchisi Akmaljon Saidovlarning berayotgan ta'lim saboqlarining mahsulini 9- «B» sinf o'quvchisi No'monjon Mehmonovni qator fan olimpiadalarida g'olib deb topilib, yaqinda chop etilish arafasida turgan she'riy to'plamida, o'quvchilarimiz Dilnavozxon Mehmonova, Rustamjon Rahmon o'g'li, To'xtasinbek Durnazarovlarning a'lo o'qishida, faolligida ko'ramiz.
Darvoqe, maktabimizni homiylarimiz ham doimo qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ayniqsa, «Zarafshon» jamoa xo'jaligi raisi Ahmad aka Xolovning, qishloq fuqarolar yig'ini raisi Islom aka Nasrullayevlarning yordamlari beqiyos. Ular maktabimiz uchun yangi darsliklar, eng zamonaviy kompyuterlar sovg'a qilishdi. O'tkazilayotgan barcha tadbirlarimizda faol ishtirok etishadi.
Tohir aka rahbarlik qilayotgan ushbu maktabdan mamnuniyat bilan qaytar ekanman, xalqimizning «Jo'janikuzdasanaymiz», degan o'rinli maqolini esladim. Ha, albatta maktab jamoasining olib borayotgan ezgu ishlari yakunini, yangi o'quv yilida sarhisob qilamiz.
Suhbatdosh: Sanobar RAHMON qizi,
Buxoro viloyati, Jondor tumani.

RAHMAT, SENGGA «TONG YULDUZI»!



Ustozimiz Arofatopabizni gazeta jurnallarga obuna bo'lishga chaqiradilar. Chunki inson yuqori madaniyatli va ma'rifatli bo'lishi uchun albatta maktabda «5» baholarga aytishicha, 8-avtokorxonah rahbari muxbir opalarimizga avtobuslar sonini ko'paytirganliklari, bundan keyin avtobuslar o'z vaqtida kelib turishini aytibdilar.
Qadrdonim «Tong yulduzi»! Dardimizga malham bo'lib, biz bolalar uchun bergan ko'maging uchun katta rahmat!
Gulnora TURDIMATOVA,
Yunusobod tumanidagi
239-maktabning
4- «A» sinf o'quvchisi.

MAKTAB NOMIN OQLAYLIK!

Yaqindagina «tezroq maktabni bitirsam edi», deyayotgan edim. Mana, hash-pash deguncha 11- sinfni yakunlayapmiz. Qadrdon maktabim, mehribon ustozlarim, sirdosh sinfdoshlarim bilan xayrlashishni o'ylasam, aytgan gaplarimga xafa bo'lib ketaman.
O'quv yili tugab borgani sari, maktabimiz yanada qadrliroq bo'lib borayapti. Shuning uchun ham ko'p vaqtimiz maktabda o'tayapti. Biz sinfdoshlar ayni paytda so'nggi qo'ng'iroqqa tayyorgarlik ko'ryapmiz. Dugonalarim Fotima, Xurshida, Matlubalar bilan birgalikda so'nggi qo'ng'iroqqa atab qo'ldan kelgancha she'r yozdik.
O'ylaymizki, she'rimiz ustozlarga bo'lgan cheksiz hurmatimizni isbotlaydi.
Tengdoshlarimga esa hamisha omad yor bo'lsin. Kelgusida o'z maktabi nomini oqlash barchamizga nasib etsin.
Zulxumor UMAROVA,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
216- maktabning 11- sinf o'quvchisi.

RUHI BAG'ISQILADU


Men adabiyot darsini juda yaxshi ko'raman. Shuning uchun ham badiiy kitoblarni, davriy matbuotni muntazam o'qib boraman.

Adabiyot nazariyasidan ham kitoblarni topib, o'qib, uqib oldim. Boshlang'ich sinfdaligimda ustozim Mavjudaxon opa Tojimarova biz o'quvchilarga ertak va hikoyalar to'qishni, uni daftarimizga yozishni vazifa qilib topshirardilar.

Sinfdoshlarimnikiga nisbatan mening yozgan hikoyalarim eng yaxshisi deb tan olinardi. Shu sababdan ham hikoya yozishga mehr qo'yganman.

Hozircha mashqlarim tuman gazetalarida bosilib chiqdi. Bu menga ruhi bag'ishladi. Kelajakda Saida Zunnunovadek she'r va hikoyalar yozuvchi ijodkor bo'laman.

Yulduzxon USMONOVA,
Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi
44-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi.



O'RNIN BOSOLMAS

Erta tong. Quyosh charaqlab turibdi. Har kungidek ko'chada odamlar ko'p, hamma ishga, o'qishga shoshiladi. Ishxonamizga kelib hamkasblarimiz bilan qadrdonlardek hol-ahvol so'rashamiz. Ana shu qadrdonlar orasida ustozimiz Muazzam opa alohida ajralib turadi. O'sha kuni salomlasha turib ularga tikilib qaragam xayolimda bir narsadan cho'chigandek bo'ldilar, ammo buni sezdirmaganga oldilar. Dars boshlangani tufayli ikkalamiz ham o'z sinfimiz sari ravona bo'ldik.

Oradan bir-ikki kun o'tdi, negadir ishga kelmay qo'yidilar. Muazzam opaning o'rni juda ham bilindi. Nafaqat menga balki... Litseyimiz oldida hamkasbim Mahmuda opa bilan gaplashib turgan edik, qorovul amaki, hozirgina xabar qilishdi, Muazzam opa olamdan o'tibdi, deb qoldi. Dahshatdan qotib qoldim. Nahotki... Bu xabarni boshqalarga aytish qanday og'ir. Oh, ustoz, qanday og'ir dardingiz bor edi o'sha kuni menga aytolmagan? Nega yashirdingiz-a, deya shivirlayman o'z-o'zimga yig'lab turib. Nahotki shunday ajoyib insonni endi hech qachon ko'rolmaymiz. Ularning oila a'zolariga bardamlik, sabr-toqat tilab, farzandlari va nabiralarining Muazzam opa kabi mard, mehr-oqibatli bo'lishlariga tilakdoshman.

*Yaxshi kishi olamdan ko'z yumsa gar,
Yurakni tirnaydi tikanli g'amlar.
Yaxshi kishi kelar uning ortidan,
Lek o'rnin bosolmas o'tsa ham damlar...*



Zilola AXROLJON qizi,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
273-litsey-maktab o'qituvchisi.

DO'STLIK G'ALABA QILDI

Yaqinda O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi S.Sirojiddinov nomli akademik litseyning «Yosh kuch» guruhi va Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyning «Nafosat» guruhi o'quvchilari o'rtasida «Tumanimiz tarixini bilamizmi?» mavzusida bellashuv bo'lib o'tdi. Bellashuvda o'quvchilar 40 yoshli Chilonzor tumanining qanday tashkil topgani va hozirgi kungacha bo'lgan


tarixini qanchalik bilishlarini bayon etdilar. Mahallalar, sport maydonchalari, o'quv yurtlari, sanoat korxonalarini, qadimiy ziyoratgohlar haqida kengroq ma'lumot berishga harakat qildilar.

Shuningdek, «Obod mahalla yili»da mahallalarda olib borilayotgan namunali ishlarni ham aytib o'tdilar. Kichik sahna ko'rinishi orqali mahallalardagi yutuq va kamchiliklarni ochiq ko'rsatishga intildilar.

Bellashuvga taklif qilingan mehmonlar ham tadbirning qiziqarli va mazmunli o'tganligini aytib o'tdilar.

Bellashuvda ikki guruh a'zolari teng baholandi. Natijada do'stlik g'alaba qozondi.

Nafisa HAYDAROVA,
Respublika Nafis san'at litseyi o'quvchisi.



DUGONAMNING ORZULARI

Ta'tilda qishloqdagi buvimnikida bo'ldim. Qo'shnimiz Gulira'no bizni bayram bilan tabriklashga chiqqan ekan. U bilan uzoq suhbatlashib o'tirdim. Tengdoshim bo'lgani uchun ham mendan qiziqib darslar haqida so'radi. Men esa uning maktabidan, darslaridan, o'qituvchi va tengdosh, sinfdosh do'stlarini, umuman qishloq maktabi haqida so'radim. Dugonamning gaplaridan shuni uqdimki, uning orzulari ham, armonlari ham bir dunyo ekan.

Qishloqdagi dugonam Gulira'noga shunday degim keladi: «Dugonajon omad senga yor bo'lsin, kelajakda sen o'sib-ulg'ayib, bilim, ilm olib albatta ajdodlarimizdek shoir, olim va yozuvchi bo'lisan. Buning uchun sening irodang yetadi».

«Yangi Avlod» bolalar klubi a'zosi Dildora SIDDIQOVA.

Istak

Yana bir necha oydan so'ng «Alp Jamol» nomli 316 - maktabimizning ochilganiga 9 yil bo'ladi. Maktabimizning 1994-1995 yillardagi ilk faoliyati bilan hozirgi faoliyatini solishtiradigan bo'lsak, yer bilan osmonchalik farq bor. O'sha paytlarda maktab kutubxonasida bor-yo'g'i

ALP JAMOLNING MAHORATI

50 dona kitob bo'lgan ekan, xolos. Hozirda kutubxonachimiz Mahmuda opa va Alp Jamolning kenja farzandlari Muhiddin aka Asomiddinovning sa'y-harakatlari bilan kutubxonamizda 6000 ga yaqin bir-biridan qiziqarli, mazmunli, boshqotirmalarga boy kitoblar saqlanmoqda.

«Alp Jamol» bobomizning ijodlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda ko'proq satirik janrga moyillikni sezamiz. Ularning asarlari oyna jahonda «Televizion miniatyuralar teatri», «O'talar so'zi - aqlning ko'zi» ko'rsatuvlarida namoyish etilar ekan. Ularning «Toshteshar», «Arosat», «Quvg'in», «Bevafo ekan», «To'ydagi tutun», «Mehribonlar» va «G'izg'izon» kabi asarlari sahna yuzini ko'rgan.

Har doim xotira kuni Alp Jamolni eslaganimizda ularning hayoti, ijodi ko'z oldimizda gavdalanadi. Biz hamisha bunday iste'dodli, iymonli va bir so'zli adiblarimiz borligidan faxrlanib yashashimiz, ularning kitoblarini o'qib, ibrat olib, ular kabi kuchli, iymon-u e'tiqodli bo'lishimiz zarur.

Bizning «Alp Jamol» guruhimiz tashkil topganiga ham 3 yil bo'lib qolibdi. Shu uch yil ichida guruhimiz a'zolari bilan birgalikda bobomizning asarlarini, ular yaratgan sahna ko'rinishlarini ijro etdik. Guruhimizga Mavluda opa Umarova, Mahmuda opa Sodiqovalar rahbarlik qiladilar. Bizning musiqa ustozimiz ham bizga katta yordam beradilar. «Alp Jamol» guruhimiz o'z mahoratini oshirib, albatta ustoz ijodkorlar nomiga sadoqatli bo'ladi.

Dilshod IMOMOV,
Toshkent shahridagi Alp Jamol nomli
316 - maktabning 6- «V» sinf o'quvchisi.

AJDODLARIMIZ XOTIRASI ABADIY BO'LSIN

Xotira naqadar ulug'vor so'z, bobolarimiz jasoratiga bag'ishlangan maydondan o'tar ekanman, vaqt xuddi yarim asr orqaga surilgandek bo'ladi. Bobolarimiz jahonning nurafshon kelajagi uchun, eng qutlug' e'tiqod uchun kurashganlari ko'z oldimda gavdalandi. Ha, shu baxtli hayot uchun bobolarimiz o'z umrlarini fido qilganlar. Yoshlar xotiraga, e'tiqodga ancha loqayd bo'lib qolmadilarmikan? Qahramonlar nomlari bitilgan marmar toshlar ustida yugurib yurgan tengdoshlarimiz, tashlangan muzqaymoq qog'ozlari, bular hammasi bobolarimiz xotirasiga befarqlik emasmikin? Hiyobon bo'ylab ma'yus turgan majnuntollar xotiraga bo'lgan e'tiqodimizni tarbiyalashga o'rnak bo'lsin!

«Yangi Avlod» bolalar klubi a'zosi Nigina TURDIBOYEVA.

Sog` yurak - tog` yurak

OYBEKJONNING MUNAVVAR ORZULARI



**Do'stlarim qalbidagi
illiq mehrni, ustozlarim
yuzlaridagi samimiy
tabassumni,
oyijonimning duoga
ochilgan qo'llarining
taftini, dadajonimning,
yigit kishi mas'uliyatli
bo'lishi lozim, degan
o'gitlarini hamisha
e'zozlashga intilaman.**

Oybekjon bilan yaqindan tanishish maqsadida uni suhbatga chorladim.

-Nega aynan sportning karate turiga qiziqasiz? O'tkazilgan karate musobaqalarida qanday natijalarga erishdingiz?

-Karatedagi turli-tuman tana harakatlari, qiziqarli uslublar go'yo bir sehrli olam kabi doimo meni o'ziga chorlab turadi. 5-sinfidan boshlab «Cho'pon ota»dagi sport sog'lomlashtirish kompleksidagi karate klubiga qatnayman. Tajribali murabbiy Jamshid Qobilov va bosh murabbiyimiz Fozil Xudoynazarovlar bizga bu sport turining nozik sir-asrorlarini qunt bilan o'rgatishmoqda. Ularning biz bilan yurakdan suhbatlashishi, har birimizga alohida e'tibor berishlaridan juda mamnunmiz. Klubimiz a'zolari nafaqat Respublikamizda, balki qo'shni Qozog'iston

Respublikasi va Rossiyada o'tkazilgan karate musobaqalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Mening o'zim 2002 yilda Moskva shahri yaqinidagi Rubsovsk shahrida o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan Xalqaro «Karate-do» musobaqasida faxrli 3-o'rinni egallab, bronza medali sohibi bo'ldim. Yaqinda Toshkent shahrida o'smirlar o'rtasida karate bo'yicha II - Xalqaro ochiq birinchilik bo'lib o'tdi. Omadim chopib, faxrli birinchi o'rinni egalladim va oltin medalni qo'lga kiritdim. Bundan tashqari, gullar vodiysi Namangan shahrida o'tkazilgan «Oltin vodi y birinchiligi» musobaqasida ishtirok etib, kumush medalga sazovor bo'ldim. Ushbu yutuqlarimda ustozlarimning mehnati juda katta deb bilaman.

-Qaysi fanlarga ko'proq qiziqasiz?

-Zoologiya, iqtisod fanlarini juda yaxshi ko'raman. Ayniqsa, iqtisod fani ustozimiz Latofat opa Qodirovaning dars o'tish jarayoni shu qadar qiziqarli-ki, hatto tanaffus

Tengdoshingiz Oybekjon Alimov poytaxtimizning Sobir Rahimov tumanidagi 310- iqtisodiy litsey-maktabining 7- sinfida o'qiydi. A'lochi, faol o'quvchilardan biri. Oilaning kenja farzandi, 4 nafar opasi bor. Rustam aka va Gulnora opa farzandlariga halol mehnatning mashaqqatli sir-asrorini qunt bilan o'rgatishgan. Bu oilaga ko'pchilik havas bilan qarashadi.

bo'lganini ham sezmay qolamiz. Latofat opa har darsida bir-biriga o'xshamagan yangi-yangi, qiziqarli mavzularni tushuntirib beradilar.

-Bo'sh vaqtingizda nimalar bilan mashg'ulsiz?


-Turli-tuman rasmlar chizish jonu dilim, ko'rkam tabiatni, gullarni, ayniqsa, bolalarni xayol surib turgan holatini chizishni yaxshi ko'raman.

-Kelajakda kim bo'lmoqchisiz, nimalarni orzu qilasiz?

-Eng avvalo ota-onam istaganidek komil inson bo'lib yetishishni orzu qilaman. Qolaversa, o'qishimni oliygohda davom ettirib, bojxona xodimi bo'lmoqchiman. Karatega kelsak, u mening doimiy hamrohimdir. Niyatim - kelajakda chet ellarda o'tkaziladigan karate bo'yicha nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, yurtimiz sharafini himoya qilishdir.

Munavvar orzular og'ushida parvoz qilayotgan tengdoshingiz Oybekjon bilan xayrlashar ekanmiz, pokiza qalbingdek pok niyatlarining hamisha ro'yobga chiqsin, deya niyat bildirdik.

Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.



Futbol yulduzlari hayotidan

"OLTIN TO'P" EGASI

Mashhur futbolchi Pele Braziliya ramzi bo'lgan, desak adashmaymiz. U futbolchilar oilasida dunyoga keldi. Pelening to'liq ismi Edson Arantis du Nasimentu. Otasining ismi esa Ramos du Nasimentu edi. Otasining futboldagi laqabi Dondino bo'lib, u jarohati tufayli futbol olami bilan erta xayrlashdi.

Bolaligidan to'p tepishni xush ko'rgan Pele qo'shni bolalar bilan ertalabdan kechgacha o'ynardi. Biroq

ularning to'p sotib olishga qurbilari yetmasdi. Shuning uchun ham katta hajmdagi paypoq ichiga latta va qog'oz to'ldirishar edi.

Pele katta futbolga qiyinchiliklar bilan kirib keldi. U «Santos» klubida ham, terma jamoa safida ham maydonga 16 yoshida tushdi. Pele 17 yoshida eng yosh jahon chempioni bo'lib tarixdan joy oldi.

Pele uch karra Jahon va ikki marotaba Janubiy Amerikaning chempioni bo'lishga erishgan yagona futbolchidir. U 1959 yili «Santos» klubi safida yuzinchi marotaba maydonga tushib, raqiblar darvozasiga 126 ta to'p kiritdi va Ginnes rekordlar kitobiga kirdi. 1969 yili 19 noyabr kuni mashhur «Marakona» maydonida kiritilgan uning 1000- to'pi Braziliya xalqining katta bayramiga aylanib ketdi.


Pele o'z faoliyati davomida 1364 marta maydonga tushib, 1282 ta to'p kiritdi.

Pele Janubiy Amerikaning eng yaxshi futbolchisiga beriladigan «Oltin to'p»ni ham qo'lga kiritdi.

MILLIONLAR O'YINI

Men futbolga juda qiziqaman. Shuning uchun ham zangori ekran orqali berilayotgan eng yaxshi futbol o'yin va ko'rsatuvlarni kuzatib borishga, gazeta va jurnallarda yoritilayotgan eng yaxshi o'yinchilar haqidagi maqola va suhbatlarni o'qib borishga harakat qilaman.

Ko'pgina tengdoshlarim ayni kunlarda O'zbekiston va jahon futbol maydonlarida to'p surayotgan mashhur futbol yulduzlarini yaxshi bilishadi. Lekin ularning hammasi ham bundan bir necha yil oldin dunyoga tanilgan Pele, Maradona, Pxatini, Lev Yashin, Krasnitskiy, Abduraimov kabi futbolchilarni yaxshi tanishmaydi. Shuning uchun ham turli yillar mobaynida chiqqan gazeta, jurnal va kitoblardagi maqolalar asosida mashhur futbolchilar haqida yozishga qaror qildim. Ushbu maqolam futbolning haqiqiy ishqibozi bo'lmish tengdoshlarimga ma'qul bo'ladi, deb o'ylayman.



**Oybek NIYOZOV,
Toshkentdagi
Abu Rayhon Beruniy nomli
243- maktabning 8- «A» sinf
o'quvchisi.**

«SHUM BOLA»NING QAHRAMONI

Yaqinda O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyimizda XX-asr o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi, mumtoz shoir G'afur



adabiyotining yirik namoyondasi, mumtoz shoir G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Uni litseyimiz direktori Bahodir Yo'ldoshev olib borgan tadbirimizga adibning mashhur asari «Shum bola» filmining qahramonlari Abduraim Abduvahobov va Tohir Saidovlar hamda Universitet professori va o'qituvchilari tashrif buyurishdi. G'oyat qiziqarli o'tgan bu yig'ilish litsey o'quvchilari uchun G'afur G'ulom hayoti va ijodi bo'yicha o'ziga xos bir imtihonga aylanib ketdi. Ayniqsa, litseyimizning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining faol o'quvchilari shoir asarlaridan qiziqarli sahna ko'rinishlarini ijro etib, yig'ilganlarning olqishiga sazovor bo'ldilar. Yig'ilish so'ngida Abduraim aka va Tohir akalar «Shum bola» filmining yaratilish jarayonidagi xotiralarini maroq bilan so'zlab berdilar. G'afur G'ulom tavallud kuniga bag'ishlangan bu tadbir biz o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi. Jonkuyar ustozlarimiz Muattar G'oyibnazarova, Dilfuza Shodiyeva, Hafiza Mahmudovalarning sa'y-harakatlari bilan ilm dargohimizda barcha tadbirlar g'oyat maroqli o'tkaziladi.

**Fayzullaxon OTAJONOV,
O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov akademik litsey
o'quvchisi.**

**Mustaqil yurt bolalari iqtidorlidir**

Aziz bolalar! Hammangiz ham Navoiy viloyatining cheksiz-chegarasiz hududlari, jumladan, adoqsiz qumlik va yantoqlik cho'llari bag'rida soatlab kezish, tulkilari, burgutlari, jayronlari, otlari, tuyalari, qorako'l qo'ylarini ko'rish baxtiga

m u y a s s a r

opa. -Xolboyjon rais bo'lib keldilaru xo'jalik ham, maktab ham gullab ketdi. Biror vaqt bu yerlarda piyoz, qovun, tarvuz, beda, makka ekilmagandi. Chunki Xolboyjon

qilib berganini ham aytishdi. Milliy ansambl guruhi qizlariga ham kiyim tiktirib berayotgan ekan. 100 ming so'mga yana o'quv anjomlari olib berildi. Kam ta'minlangan xonadonlarga 70 ming so'm naqd pul berganini ham eshitdik. Maktabga video sovg'a qilingani ham haqiqat.

SAHOVATLINING UYI OBOD

Uy?

Hazrat Navoiy bobomizning muborak nomlari bilan ataladigan bu tuproqqa chindan ham ulug' shoirimizning nazari tushgan.



Oq rangli «Jiguli» mashinasi cho'l tomonga qarab o'qday uchib borardi. Shu desangiz bu yilgi yog'ingarchilikning mo'l bo'lganidan qumliklar yam-yashil. Onda-sonda orqa oyoqlariga ko'tarilib, atrofni jiddiy kuzatayotgan yumronqoziqlar, o'sha yumronqoziqlarga hujumga shaylanayotgan lochinlar, kalxatlar, gohi esa odamlarga mutlaqo loqayd tulkilar va qayerlargadir yo'l olgan yovvoyi kabutarlar ko'zga tashlanadi. Sahroning ichiga kirib borganimiz sari uncha katta bo'lmagan qishloqlar, mol boqib yurgan cho'ponlar va bolalar fikrimizni torta boshlaydi. Keyin qozoqlarning ajoyib o'tovlari, bugungi kunga kelib biroz kamayib ketgan cho'lning yalangbardorlari - tuyalar, onalarini emib yurgan bo'taloqlar ko'rinadi. Uch-to'rt soatlardan keyin ko'zlagan manzilimiz «Karak-ota» nasilchilik shirkat xo'jaligiga yetib keldik. Bu xo'jalik va uning raisi Boysov Xolboy bolaparvar inson ekan. Uncha katta bo'lmagan

qishloq markazida suvlar toshib oqayapti, yam-yashil maysalar ko'zga tashlanadi. Na daryosi, na kanali, na arig'i bo'lmagan, ya'ni tap-taqir yerda makka, piyoz, beda, qovun-tarvuz ekilibdi.

Rais dastlab bizni maktab bilan tanishtirish niyatida ekanligini aytdi. Undan oldin esa yo'l bosib cho'llab ketganimizni sezdi shekilli, ikki kosada tuyaning qatig'ini keltirib uzatdi. Oh, ana lazzatu mana lazzat! Bu qatig' qirdardga davo emish. Chunki tuya cho'lga chidamli hayvon. O'ttiz besh kungacha suv ichmay yuraveradi. Cho'ldagi har qanday o't-o'lan unga ovqat. O'zi ham bir cho'llasa o'n chelak suvni paqqos tushiradi. Keyin hech narsa ko'rmaganday uzun lablarini yalab turaveradi. Tuya koni foyda. Suti dori. Junidan eng qimmatbaho kiyimlar to'qiladi. Go'shtini ham yeyishadi. Tuyaning qatig'ini ichganimizdan keyin desangiz tanalarimiz yayrab ketdi. Tashnaligimiz darhol bosildi.

Keyin Abdurahim Bekqulov nomli 6-maktabga kirdik. Maktabning direktori Gullensa To'laymurodova ismli ayol shirkat xo'jaligi raisidan behad mamnunligini aytib, uning sahovati va mas'uliyatini bolalarimizga hikoya qilib berishimizni so'ray boshladi.

-Shirkat xo'jaligimiz qoloq xo'jalikka aylanib qolgan edi, - deya suhbatini boshladi Gullensa



ilgari dehqonchilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilikning ko'zini biladi. 2002 yili bolalarga 500 ming so'mlik kitob sovg'a qilibdi. Shu maktabning voleybol jamoasi maktablararo musobaqada birinchilikni olibdi. Keyin esa tumanda birinchilikni, viloyatda 2-o'rinni egallabdi. O'quvchilarga sport formasini ham, 850 ming so'mga sport anjomlarini ham shirkat xo'jaligi raisi olib bergan ekan. Avtobus bilan bolalarni o'zi ta'minlar ekan. Xuddi shu rais 2001 yili maktabga 300 ming so'm yordam beribdi. Besh nafar o'quvchini «Navbahor» sihatgohida dam olishga, 15 o'quvchini esa Buxoroga sayohatga olib borishga yordam beribdi. Bundan tashqari, maktab binolarini qayta ta'mirlash uchun ketadigan harajatlarni ham ko'taribdi. Mustaqillikda tug'ilgan bolalar sovg'a, oilasi kam ta'minlanganlarga esa tushlik ovqatni bepul

Tabiiyki, qo'ylarning yo qoramollarning tabiatini tushunmaysizlar. Qo'ylar ertalab salqinda o'tlab olib, kun isiganda yotib dam oladi, oshqozonidagi o'tlarni qaytadan maydalaydi. Qorinlari ochiqqanda, ya'ni salqin tusha boshlaganda yana o'tlashga turadi. Ular uchun alohida sug'oriladigan yerlar qilib qo'yilgan. Qo'ylarning tabiati juda qiziq. Istasa, yarim tunda ham turib o'tlab ketadi. Endi tasavvur qiling-a, cho'ponlarga qanchalik qiyinligini. Cho'ponlar eshaklarining ustiga ko'rpachalarini ortib oladilar, qo'ylarning ketidan yurib, qo'ylar toliqib yo to'yib yotsalar, ular ham yotib, mizg'ib oladilar. Ana sizlarga cho'ponlarning hayotlari. Baribir ularga yaxshi. Chunki dala, toza havo, erkinlik bor. Qo'yning qatig'idan ichib, tush paytlarida ikki soat uxlab olishga ne yetsin.

«Sahovatlining uyi doim obod», deb bekorga aytishmagan. Kimki sahovat ko'rsatsa, unga doim rahmat yog'iladi.

Eslatib qo'yay, cho'lga, qorako'l qo'ylari yoniga sayohatga borishni orzu qilsalaringiz albatta olib boraman. Cho'lning haqiqiy zahmatkashi Xolboy rais albatta bizni quchoq ochib kutib oladi.

O'ktam HAKIMALI.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi... Maqsadimiz bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar yerni esa bilimlilar bezar.

I. OQBOLA

Xurshid buvisidan arazladi. Rost-da, axir Mahsumaning buvisi Shirin xola bilan ikkovi kun bo'yi suhbatlashaverishadi, hech gaplari tugamaydi. Ertak aytib bering, deb

ko'rsin-chi,

darrov Xurshidni

ko'chaga haydashadi:

-Bor, bolaginam, birpasgina ko'chada

bering, deganida aytib bermagandim-a!», deb yig'laydi buvisi. Keyin yig'lab-yig'lab, o'lib qoladi... o'lib qoladi? Nega, nega buvisi o'ladi? Yo'q, ertak aytib bermasayam

buvisi yaxshi, hecham o'lmaydi...

Xurshid ko'zlarini ochdi. Xayollari ham tarqab ketdi.

M o v i y

osmonni tutib ketdi. Xuddi Xurshidning kaftiday keladigan kichkinagina, yaltiroq nur quyoncha osmonni boshiga ko'tarib chinqirgancha chopib yurardi. Uning ketidan oppoq bulut-bola yugurib kelardi. Bola yetib,

nurlu quyonchani kafti bilan tutib

olmoqchi bo'lganida, u bir

chinqiradi-yu

uzoqlashib

ketadi.

Xurshid to'satdan

nurlu quyonchani kimligini

tushunib qoldi, u - bulutlar orasida choy

ichib o'tirgan Oftob otaning bir siqim nuri -

nevarasi edi. U buvasi dam olayotganida

bulut-bolalar bilan birga o'ynash

uchun quyoncha shakliga kirib

olgandi.

-He-yey bola! - chaqirdi

Xurshid bulut-bolaga

qo'lini silkitib.

Bulut bola eshitdi

shekilli, qayrilib qaradi.

Keyin sekin-sekin pastlab,

Xurshidning yoniga tushdi.

- Nimaga chaqirding? -

so'radi u.

-O'zim, shunchaki, - dedi Xurshid

nima deyishini bilmay. - Kel, birga o'ynaymiz.

-Mayli, - bulut-bola darrov rozi bo'ldi-yu keyin o'ylanib

qoldi. - To'xtab tur-chi, men singlimni ham chaqiray.

Bulut-bola barmog'ini og'ziga tiqib, shunday xushtak

chaldiki, shamol turib, yosh shaftoli nihollarini egib

yubordi. Osmonda oppoqqina bulut-qizcha paydo bo'ldi.

U akasining oldiga kelib tushdi-da, zangori kipriklarini

pirpiratib Xurshidga qiziqish bilan tikildi. Xurshid ham

ajablanardi, o'zi-ku oppoqqina bulut, lekin xuddi rostakam

qizchaga o'xshaydi.

(Davomi bor).

BUYUK SUT DARYOSI

(Qissa)

o'ynagin.

Xurshidning hafsalasi pir bo'ladi, Shirin xolani

shunaqangi yomon ko'rib ketadiki! Qani endi

shu qilganiga... E-e, ko'chadan

Mahsumaning ovozi eshitilyaptimi?

Buvisining o'chini olib, uni boplab

ursamikin? Yo'q, keyin

Mahsuma shunaqangi bir

«qo'shiq» aytib beradiki, ovozi

yetti mahallaga yetadi. Erka

nabirasining yig'isini eshitgan

Shirin xolaning yanayam jag'iochilib

ketar...

Xurshid o'ch olish fikridan qaytib,

boqqa qarab ketdi. Shaftolilar tagida tizza bo'yi

bo'lib qolgan

bedapoyaga yetdi-da,

ko'zini yumdi. Mana

shunday yotaveradi,

yotaveradi, keyin

oradan yuz yil o'tib

ketadi. Buvisi, oyisi,

adasi uni rosa

qidirishadi. «Bechora

bolaginam, ertak aytib

Bolalar! Siz «Tong yulduzi» sahifalari orqali**yozuvchi Muhabbat Yo'ldoshevani yaxshi tanisiz. Muhabbat opangiz****sizlarga atab ajoyib ertak va hikoyalar yozadi. Uning hikoyalari o'zbek, qozoq,****ukrain, belorus va rus tillarida chop etilgan. Bilasizlarmi, bolalar, 1989 yili Moskva shahrida****bo'lib o'tgan Butunittifoq Yosh ijodkorlar seminarida Muhabbat Yo'ldosheva o'zining «Buyuk sut****daryosi» nomli ertak-qissasi bilan qatnashgan va oqibatda hali birorta ham kitobi chop etilmagan****yosh adibani Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilish uchun tavsiya etishgan edi. Taqdir taqozosi bilan****muallifga anchagina olqishlar olib kelgan ushbu ertak-qissa hali matbuotda to'lig'icha chop****etilmagan ekan. Bugun ana shu «Buyuk sut daryosi» nomli ertak-qissani sizlarning****hukmingizga havola qilmoqchimiz. Agar uni hafsala bilan o'qib chiqsangiz,****adiba opangiz siz - bolalarni qanchalik yaxshi ko'rishiga o'zingiz****ishonch hosil qilasiz.**

osmonga

tikildi.

Osmon bo'lsa bu paytda bir to'da ajoyib hayvonlarga

to'lib ketgandi: ikki boshli xo'rozlar deysizmi, shoxli


quyonlar deysizmi, ajdaholar, eh-he! Ular xuddi tirikday

osmonda chopqillab, o'ynab yurishibdi.

Ehtimol, haqiqatan ham tirikdirlar? Ana, ulardan biri

qichqiryapti-ku.

-Voy-voy, vo-y!.. - chiyillagan ovoz to'satdan butun



Ustoz ijodi

BUYRUQ GAP

O'qituvchi doskaga,

Yozar edi buyruq gap.

-«Valijon, tezda boring,

Olib keling, uchta qop!»

-Xo'p bo'ladi, domlajon!

O'rnidan turdi Vali.

Yugurdi tashqariga,

Qoplar olib kelgani...

BUZOQCHAM

Ma'rab turar javdirab,

Yangi tug'ilgan buzoq.

O'zi esa qop-qora,

Peshonasi qashqaroq!

O'tni bersam sevinib,

Sakrab yeydi, dumi oq.

Ba'zan sho'xligi tutib,

Oshib ketar umbaloq!

QULOQDAN AVVAL

-Osmonda chaqmoq chaqsa,

Nega avval ko'ramiz?

Momaqaldiroqni biz,

Keyinroq eshitamiz?

-Domla, quloqdan oldin,

Turadi-da ko'zimiz!

To'xtaxon RAHIMOVA,

Namangan tumani,

8-o'rta maktabning faxriy

o'qituvchisi.

Nodirbek va A'zamjonlar aka-uka, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 46-maktabning 6-, hamda 3-sinflarida tahsil olishadi. Aka-ukalarni maktabdoshlari juda hurmat qilishadi. Chunki ular o'qishda ham, jamoat ishlarida ham, sport va san'at sohasida ham barchaga o'rnak. Sport bilan shug'ullanish Nodirbekning eng sevimli mashg'uloti. Darsdan bo'sh vaqtlarida kurash to'garigiga qatnaydi. Oila kenjatoyi

O'Z O'RNI BO'LADI

A'zamjonning esa uy

hayvonlariga, ona tabiatga mehri

bo'lakcha. Qo'y-qo'zilarini boqish uchun yaylovlarga olib

chiqib ketadi. Kun bo'yi tabiat qo'ynida yursa ham, hecham zerikmaydi...

Nodirbek va

Fattoyevlar oilasini

viloyatda ham yaxshi

sulolasi», deya

Sulolaning kenja

Nodirbek va

san'atning haqiqiy

do'mbira chalishni

Tuman, viloyat

bayram, tantana

dastasining ishtirokisiz

kunlarda oilaviy dasta

tashkiloti bilan

o'tkaziladigan

G'ijduvoniy

tantanalariga qizg'in

Ularning konsert


ukalarning alohida o'rni bo'ladi.

Nodirbek kelgusida bank xodimi, A'zamjon esa ichki ishlar xodimi bo'lishni

orzulashadi. Kim bo'lishlaridan qat'iy nazar san'at ularning doimiy hamrohi bo'lib

qolishiga umid qilamiz. Zero, san'atga oshno qalb egalari faqat ezgulik uchun

yashaydilar.



A'zamjonlar ona avlodi

nafaqat tumanda,

tanishadi, «san'atkorlar

a r d o q l a s h a d i .

vakillari bo'lmish

A'zamjonlar ham

shaydolari. G'ijjak va

«qoyillatishadi».

miqyosidagi hech bir

Fattoyevlar oilaviy

o'tmaydi. Ayni

a'zolari YUNESKO

h a m k o r l i k d a

A b d u x o l i q

tavalludining 900 yilligi

hozirlik ko'rishyapti.

dasturlarida aka-

ukalarning alohida o'rni bo'ladi.

Nodirbek kelgusida bank xodimi, A'zamjon esa ichki ishlar xodimi bo'lishni

orzulashadi. Kim bo'lishlaridan qat'iy nazar san'at ularning doimiy hamrohi bo'lib

qolishiga umid qilamiz. Zero, san'atga oshno qalb egalari faqat ezgulik uchun

yashaydilar.

Nargiza AKBAR qizi.

VATAN TUPROG'I

O, Vatan tuprog'i, Vatan tuprog'i.

Har nedan buyuksan, buyuksan, buyuk.

Sening farzandlaring dong'i dovrug'i,

Olamga taralgan quyoshday suyuk.

Dunyoni lol qilgan Temurlaring bor.

Falakni zabt etgan Ulug'laring bor,

Dushmanni mahf etgan Mangularing bor,

O, Vatan tuprog'i, Vatan tuprog'i.

Buyuk Hindistonda Mirzo Boburing,

Sening har zarrangni muqaddas bildi.

Yorkent o'lkasidan kelur nolalar,

O Vatan tuprog'i, Vatan tuprog'i.

Men sendan ayrilishni istamam aslo,

Sen uchun jonimni aylagum fido,

Muqaddas bo'lgansan, bo'lg'in muqaddas,

O, Vatan tuprog'i, Vatan tuprog'i.

Zarifa SAFOYEVA,

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi

Sobir Rahimov

nomli maktab o'qituvchisi.

O'TKINCHI DUNYO

Gohida shodligu goho g'am ila,

O'tib borayapti o'tkinchi dunyo.

Mard bilan nomardni birdayin bilar,

Ko'rayapman, ko'rganim sarobli, ruyo?

Daraxtning yaprog'i to'kilar kuzda,

Qizlarning chiroyi sharm ila xayyo.

Qalbdagi mehri o'qiysiz ko'zda,

O'tib ketaverar o'tkinchi dunyo.

Xalqimiz deydilar: «Soy soyga oqar»,

Boylar ham shundaymish bir-birga go'yo.

Oqilsan yo'lingga baxt gullar taqar.

Baribir o'tadi o'tkinchi dunyo.

Mo'tabarxon RASULOVA

Farg'ona viloyati Bog'dod tumanidagi Iqtisodiyot

gimnaziyasining 10- «B»sinf o'quvchisi.

**7 - BO'LIM
IBN SHIFONING
SOG'LIQ HAQIDAGI
O'GITLARI**
(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Kim bo'lsa bo'shang,
Tan sog'lig'i tang.

Doimo yotish -
Sog'liqqa yot ish.

Har bitta a'zo,
O'zicha a'lo.

Yemaxil-xilin,
Yegilhil-hilin.

Sog' bo'lsa tishlar,
Besh erur ishlar.

Mushak bo'rtganda
Quvvat ko'p tanda.

Tishda bor'tartib:
Yur, yuvib. Artib.

Bo'lmasin og'iz,
Misli yalmog'iz.

Tomchi-tomchi ter,
«Sog'lomdanman» der.

Ishlab terlasang,
Mazadan mazang.

Dildan achingan
Ulug' zot chindan.

Tabib kuyunsin,
Hamda suyunsin.

Qay tabib qo'pol,
Bemor der: - Yo'qol!

Dard kelar birdan,
Ketar tadbirdan.

Tabib, tavakkal -
Qilma hech mahal!

Tekshirgach yurak,
Ber yaxshi darak.

Sog'aygan joying -
U baxt saroying.

*Tabobat hikmatlarin
Joylab baytlar aro,
Beray maslahat - o'git,
Bo'lgay deb yaxshi davo.*



Ta'magir tabib
So'rar chalg'itib...

Tabibga amal
Beradi xalal.

Po'lat MO'MIN

Bemorga tabib
Bo'lsin do'st-habib.

Tuzatganni yod -
Etar asl zot.

-Kim barchaga teng?
-Tabiblarni deng.

Ko'rkam manzara
Davodir, qara.

Kulgidan davo
Olganlar a'lo.

Ketmasdan putur,
Tekshirib yur.

IBN SHIFO ULASHAR DAVO

(o'g'itlar)

Tanga kuch yiqqan,
Chindan chiniqqan.

Atrofiging toza -
Tutganing soz-a.

Tanda ortsa go'sht -
Demak sog'liq bo'sh.

Mard bo'shshamaydir,
Xizmatga shaydir.

Qovog'i soliq
Bu ham nosog'liq.

Cheksang dil qonar,
Lek, sog'liq yonar.

**8 - BO'LIM
IBN SHIFONING
TABIBLAR HAQIDAGI
O'GITLARI**

Xaloskor tabib
Kelar betaklif.

Ko'p darddan xalos -
Etadir ixlos.

Tabib, bo'l halol,
Bu senga iqbol.

Aralash davo
Rasvodan rasvo.

Tabibga tomir -
Aytar darddan sir.

Bemorga achin,
Tabibliging chin.

Tabib, ber yordam -
Bemor yovga ham...

Tabib suhbat
Qalbing sihati.

Dorining zo'ri
Quyoshning nuri.

Yurishar aytib:
-Dard chekkan tabib.

Ko'p dard yashirin,
Bil aniq sirin.

Yanglishsa tabib,
Bo'lmasin tuzatib.

Tabib kuzatar,
Keyin tuzatar.

Ko'pdir dard xili,
Tabibda tili.

Tong bilan quvon,
Tabibga ishon.

Jarrohning tig'i -
Shifo, ochig'i.

Tabib, o'zing sog'
Ko'ngling bo'lsin chog'.

Sog' bo'lsa hulqing
Tuganmas mulking.

Kasalni so'roq -
Qilgil puxtaroq.

Haqiqiy tabib
Istaydi tartib.

Tabibki g'amxo'r -
Manzur va mashhur.

Oltinday asrab
Yurganing asab.

Doriga ruju
Yaxshi emas u...

Izlangan tabib
Sizlangan tabib.

Shifokor bari
Sog'liq askari.

O'zicha har kim
Luqmoni Hakim.

*Ibn Shifo o'giti:
(so'nggi so'z o'rnida)
Bemor olsa quloqqa,
Dilda qolsa nasihat.
Tuzalgusi albatta
Berajakman kafolat.
(Tamom).*

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Olim «Mexanika - mashinasozlik» instituti va universitetida ma'ruza o'qiydi. Talabalar orasida o'ta qattiqqo'l professor haqida vahimali mish-mishlar tarqaladi.

**Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.**

Abu Shukur Balxiy

-Bir gal kursdan -
kursga bittagina talabani

o'tkazganman, - deya eslaydi Landau.

-Nahotki, boshqalar-chi? -
deb ajablanadi suhbatdosh jurnalist.

-Nima bo'пти? Qolganlar hatto maktab trigonometriyasini ham bilishmasdi.

-Buni qayerdan aniqladingiz?
-Men biletlar bo'yicha so'rab o'tirmadim, har biriga alohida masala o'ylab topdimki, uni yechish uchun ziyraklik, matematika va fizikadan jindek bilim talab etilardi, xolos.

-Keyin nima bo'ldi?
-Nima bo'lardi, Kiyevdan hay'at a'zolari kelib, imtihonni qayta o'tkazishni talab qildi. Qayta o'tkazdim. Natija o'sha-o'sha chiqdi. Meni bunday qilmaslikka ko'ndirish uchun uzoq urinishdi, tushuntirishdi. Butun boshli kursni ikkinchi yilga qoldirish davlatga zarar keltirarmish. Shunda men diplomni boru bilimi yo'q odamlar davlatga yanada ko'proq zarar keltiradi, - deb javob qildim.

-Xo'sh, oxiri nima bo'ldi?
-Bilmadim, men Xarkovdan jo'nab ketdim. Kursni qoldirmagan bo'lsa kerak...

1937 yili Landau bundan keyingi butun hayotini fizika muammolari instituti bilan bog'lash uchun Moskvaga keladi. Shu yerda ilmiy salohiyati yanada gurkirab, bir-biridan ajoyib tadqiqotlarini e'lon qila boshlaydi. Ikkinchi Jahon urushi yillari Geliy II dek g'aroyib suyuqlikning xossalari tushuntirib

ABADYYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

beruvchi nazariya butun dunyoga ma'lum bo'ladi. Fizikaning Landauni qiziqirmaydigan sohasini topish qiyin. Past haroratlar va turbulentslik, akustika va plazma nazariyasi va neytrind...

Aytishlaricha, Landau bir kuni universitetda eshikni adashtirib, meteorologiya muammolari muhokama qilinarotgan bir seminarga kirib qolibdi. O'tirib, notiqlar fikrini bir oz eshitgach, so'z so'rab olib,

hodisalari. Lekin ularni tadqiq etishni men ish deb bilmasdim. Axir, bu beqiyos huzur-halovat, ulkan quvonch-ku!..

-San'at,

adabiyot olami-chi? Ular sizga shodlik bermaydimi?

-Bu mutlaqo boshqa narsa.

-Gaussdan ko'ra Dostoyevskiydan ko'proq narsa oldim degandi Eynshteyn. Bilmadim, balki shundaydir. Men Dostoyevskiyning yoqtirmayman...

-Kimni yoqtirasiz?

-Ko'proq Gogolni, inglizchadan Bayronni bilaman. O'zimizdan Konstantin Simonovni. Lekin buning ishimga hech dahli yo'q. Men uchun ilmfan va san'at olami o'zaro bog'lanmagan mutlaqo.

1962 yil 7 yanvar kuni Moskva yaqinidagi Dmitrovskoye shossesida Dubnoga borayotgan mo'jazgina «Moskvich» og'ir yuk mashinasi bilan to'qnashib ketdi. Landau boshdan oyoq qonga belangan holda zudlik bilan Moskvaga keltirildi. Shu zahotiyoyoq butun jahon fiziklari Dauning o'limiga qarshi kurash boshlashdi. Biz olimlarning ilmiy jasorati haqida ko'p yozamiz. O'sha kunlari esa do'stlik jasoratini ko'rsatishdi. Ba'zilar shifoxona yo'lagida tunni bedor o'tkazishsa, boshqalari tayyorada noyob dorilarni yuborishar, yana ayrimlari mashhur hakimlardan maslahat va yordam izlashardi. Xullas, Landauning hayoti uchun kurashda shifokorlargina emas, fiziklar ham g'olib chiqishdi. Avvalo uning o'zi g'olib bo'ldi. Travmatologiya nazariyasi bu qadar jarohatlangan odamni saqlab qolish mumkin emas deydi, mashhur nazariyotchi esa bu xulosaga zid ravishda omon qoldi.

(Davomi bor).

"FIZIKA - JONU DILIM"



nihoyatda qiziqarli g'oyalar beribdi, yig'ilganlar hayratda qolishibdi.

-Barcha narsa bilan shug'ullanganman, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Fe'lim shunaqa... - derdi Landau.

-Bu hol ishingizga yordam beradimi? - deb so'radi jurnalist.

-Yo'q, men o'zimni har yoqqa tashlamaganman. Aslida tor sohaning odami, shunchaki nazariyotchi fizikman, xolos. Meni rosmanasiga qiziqtiradigan narsa - tabiatning shu paytgacha noma'lum



OPPOQ FORTEPYANO VA OQ MUSHUKCHA

Sevara DAVLATOVA - Chirchiq shahridagi 12-o'rtta maktabning 5-sinfi, shuningdek, Hamza nomli musiqa maktabining 3-sinfida tahsil oladi. Tengdoshingiz bilan qilgan suhbatimizni o'qisangiz, u bilan yanada yaqinroq tanishib olasiz.

-Sevara, barcha fanlardan a'lo baholarga o'qishingizni aytishdi. Mabodo «4» baho olib qolsangiz nima bo'ladi?

-Men avvalo «4» baho olmaslikka harakat qilaman. Mabodo olib qolsam, kelasi darsda «5» baho olishga harakat qilaman.

- Musiqaga avvaldan qiziqarmidingiz?

-Ha, yoshligimdan turli musiqa asboblari chalishga juda qiziqardim. Bu maktabga o'qishga kirishimga Narimon aka Samiddinov sababchi bo'lganlar. Fortepiano chalishni menga ustozimiz Zuhra Anvarovna o'rgatganlar.

-Hozir o'zingiz mustaqil kuylar chala olasizmi?

-Ha, bir necha kuylarni chala olaman. Bo'sh qoldim

deguncha, pianinom oldiga o'tirib, musiqa chalishni boshlayman. Ustozlarim Dilyara Serverovna va Olga Viktorovnalardan olgan saboqlarimni mustahkamlayman. U yerdagi dugonalarim Malika, Dilfuza va Ksyushalar bilan doimo o'z ustimizda ishlaymiz. Chunki imtihonlarimiz yaqin.

- Sevara, yana nimalarga qiziqasiz?



Suratda: Sevara 1-sinf yakuniy imtixon konsertida ustoz bilan tushgan payti.

- Badiiy k i t o b l a r

o'qiyman. Yana ingliz tilini o'rganyapman.

Ustozim Nigora Xamidullayevna yordamida har xil inglizcha she'rlar yod olaman.

- Orzularingiz haqida tengdoshlaringizga gapirib bersangiz?

-Mening eng katta orzuim - kelajakda katta, oppoq fortepyano sotib olish. Unga mos rangda oppoq mushukcha olish niyatim ham yo'q emas.

-Tengdoshlaringizga tilaklaringiz bormi?

-Albatta. Men barcha tengdoshlarimni o'quv yilini yaxshi va a'lo baholarga bitirishlariga tilakdoshman.

-Tilaklaring o'zingga ham hamroh bo'lsin, Sevara!

Ozoda TURSUNBOYEVA
suhbatlashdi.

QADIM YURT NAVOLARI

Shoirlar bolalarga

Shogird:

- Munojotni tinglaganda dil dod qilar,
Shashmaqomdan yetti iqlim faryod qilar,
Bobolarim san'atini tavof aylab,
Ixlos qo'ydim, navo menga imdod qilar...
Ayting ustoz, nechun axir bunday bo'lar,
Kuy tinglasam- ko'zlarimga anduh qo'nar,
Dilim taskin toparmi, deb tor sozlasam,
Nolalarim har pardasi zorga do'nar.
Ayting ustoz, nechun axir bunday bo'lar,
Asl san'at, boqiy san'at qanday bo'lar?!

Ustoz:

- Qadim yurtning qadim ekan navolari,
Dil torini chertib o'tgay sabolari.
Ado qilar Dilxirojning sadolari,
Majnun kezgan Cho'li Iroq saholari.
Sarahbori, Segohlari, Chorgohlari,
Giryalari, Bayotlari, Ushshoqlari,
Ajodlarim kechmishining guvohlari,
Orzulari, armonlari, dil ohlari...
Shom tinglasang- kechalaring tunday bo'lar,
Tong tinglasan- saharlaring kunday bo'lar.
Ko'zing yumsang- joningga kuy mungday to'lar,
Asl san'at shunday bo'lar, shunday bo'lar.
San'at sehri tosh yurakni sel qiladi,
Yaxshi qo'shiq olomonni el qiladi.
Subhi sabo kabi ruhing poklab yana
Ko'ngullardan iloh tomon yo'l qiladi.

Shogird:

-Sadolarga quloq osdim, Turku Ajam,
Hindu Arab epkinlari qilar tam- tam.
Otameros ohanglarim begona-yu,
Yot ellarning nag'malari ko'p muhtaram.
Kuy tingladim, vujudimga tushdi titroq,
Nolishi-yu navolari olaquroq.
Hofizman, deb nechalar ko'krak kerar,
Qo'shig'ida zarra ma'no yo'qdir biroq.
Ayting ustoz, ayting nega bunday bo'lar,
Hofiz degan zoti ulug' qanday bo'lar?!

Ustoz:

-Chirog'im-ay, savolingga jonim qurbon,
Hofiz emas, avval bo'lgin yurtga o'g'lon.
El dardini xonishingga jo aylasang,
Hofizliging ulus ichra qolmas pinhon.
Yana aytsam, rost sayragan soz o'lmagay,
O'ldirsalar- boqiy qolur, boz o'lmagay.
Har mug'anniy pir deb bilsa ustozlarin
Nola, girih, toridagi noz o'lmagay.
Qadim yurtning o'lmas mumtoz navolari,

(Baxshiyona aytishuv)

Pok dillarda adolatning sadolari.
Yillar o'tar, ko'hna moziy xatlarida
Mangu qolur san'atga jon fidolari.

Shogird:

- Shuurimda charx uradi ming bir savol,
Javob aylang, ko'nglingizga olmag malol.
Nechun tunda Oftob chiqmas, Yulduzlar ko'p,
Qachongacha Quyoshman, der ko'kda Hilol!

Ustoz:

- Ayondir-ki, yetti olam yaxlit, butun,
Hayotingning yarmi kunduz, yarmisi tun.
Tun ortidan tong otmasa- tiyra jahon,
Oyu Yulduz, Oftobi bor Osmon nechun?!

Shogird:


- Ayting ustoz, ziyo nima, dunyo nima,
Dunyosiga kelmoqdan chin ma'no nima,

Bu olamda ko'plar o'zin tanho bilan,
Borliq ichra yagona kim, tanho nima?!

Ustoz:

- Ay chirog'im, dunyolarning dunyosi ko'p,
Ziyosi ko'p, ziyosidan riyosi ko'p.
Qiblasu-yu xudosi ko'p odamlar bor,
Tashbeh tilar bo'lsang, aning qiyosi ko'p.
Omonat bir dargoh ekan foniy dunyo,
Qalb tubida jilva qilgan iymon-ziyo.
Savob ila munavvar qil hayotingni,
Borliq ichra Xudo bordir, Vatan tanho!
To'tiyo qil shu tuproqning har gardini,
Gulgun ayla Onang chehrai zardini.
Ko'ngildagi ezgu niyat, xayru amal
Ayon etgay kishi nomardu mardini.
Bu dunyosin bo'Imag'ay hech vafolari,
O'tar- ketar necha shohu gadolari,
To qiyomat qolur vale tarix bo'lib,
Elni sevgan fidoyi yurt daholari...

Muhiddin OMON.



Aziz bilimga chanqoq o'quvchilar! O'tgan sonlardagi «So'z o'yini» rukni ostida berilgan 3 ta so'zga siz o'quvchilardan juda ko'p maktublar oldim. Ushbu maktublarni o'qir ekanman, bir narsaga amin bo'ldimki, sizlar juda bilimdon va zukko ekansizlar.

14-sonda berilgan «Mustaqillik» va «Ko'kalamzorlashtirish» so'zlariga eng ko'p so'z tuzgan bilimdon o'quvchi deb, Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 6-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Shahlo Shukurova tanlab olindi. U 1-so'zga 41 ta, 2-so'zga esa 94 ta so'z tuzibdi.

«Respublika» so'ziga esa Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi Amir Temur nomli maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi Iroda

Musurmonova 53 ta so'z tuzibdi.

Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Bobur mahallasi 8-uydan Dilnoza Qodirova «Mustaqillik»ka 55 so'z, «Ko'kalamzorlashtirish» so'ziga 102 so'z topibdi.

Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, 63-o'rtta umumta'lim maktabining 4-«V» sinf o'quvchisi Laziz Hasanov 1-so'zga 20 ta, 2-so'zga esa 60 so'z tuzibdi.

Toshkent shahri, Farg'ona yo'li ko'chasi 5-uydan Gulxida Qulahmedova «Muvaffaqiyatsizlik» so'ziga 70 ta so'z tuzibdi.

Siz ham ko'plab so'zlar topishingizga ishonchim komil!

GAVHARSHODBEGIM

Tuzuvchi: NILUFAR.

«Istiqlol umidlari» to'garagimizga a'zo bo'lgan o'quvchilar orasida tasviriy san'atga ixlosmandlari ham talaygina. To'garagimizga taniqli musavvirlar, mo'yoqalam sohiblari mehmon bo'lib kelishsa,

ana shunday o'g'il-qizlar uchun haqiqiy bayram bo'lib ketadi. Atroflarini qurshab olib savollarga «ko'mib tashlashadi», chizgan rasmlarini ko'rsatib, maslahatlar olishadi.

Toshkent Davlat Pedagogika universitetining badiiy grafika fakulteti katta o'qituvchisi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a'zosi



Bahrom aka Tojiyev

bilan bo'lgan uchrashuvimiz ham juda qiziqarli o'tdi. Bahrom aka serqirra ijodkor. Yoshlikdanoq tasviriy san'atga, jurnalistika va pedagogikaga qiziqib, bu borada tinmay izlandi.

-Ustozlardan omadi chopgan shogirdman, desam xato qilmagan bo'laman,-deya so'z boshladi Bahrom aka bolalarga sinchkov nazar tashlab.- Adabiyot o'qituvchimiz mitti qalbimda o'z faniga qiziqish uyg'ota olibdiki, rassomlar ijodi, ko'rgazmalar haqida, madaniyat va san'atga oid mavzularda maqolalar yoza boshladim. «G'uncha» jurnali mas'ul kotibi Mahmud aka Murodov hamda Tursunpo'lat akalarga havas qilib chizgan sho'x, yumoristik ruhdagi rasmlarim jurnalda chop etilganda, dunyoda mendan-da baxtliroq odam yo'q edi, nazarimda. Maktabimizda muntazam ravishda chiqib turadigan «Nafosat» nomli devoriy gazetaga she'r, maqola va xabarlar yozish, bezatish ishlari ham mening zimmamda edi. Ota-onam pedagog bo'lishgani uchun meni ham izlaridan borishimni istashardi. Lekin san'atga bo'lgan qiziqishim

ustunlik qilib, Benkov nomidagi Respublika rassomchilik bilim yurtiga o'qishga kirdim. Keyinchalik xalq rassomi Anvar aka Mirsoatov

menga ustozlik qildilar. Tasviriy san'at sohasida yo'l-yo'riqlar ko'rsatib, ishlarimdan ko'rgazmalar tashkil qildilar...

Bolajonlarim, men bu gaplarni bejiz aytayotganim yo'q. Adabiyotga, san'atga oshno tutinish ilinjida mana shu to'garakka muntazam qatnab, ustozlaringiz o'gitlarini jon-qulog'ingiz bilan tinglayotganingizni kuzatib juda sevindim. Ijodkor bo'lish uchun insonda tug'ma qobiliyat, qolaversa, qiziqish, havas bo'lishi kerak. Yana, shogirdining diliga to'g'ri yo'l topa oladigan ustoz bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. Men to'garagingizda ana shunday muhitni payqadam. Demak, siz faqat o'qib-o'rganishingiz, izlanishingiz, ko'proq ijod qilib, maqsad sari intilishingiz lozim. Shundagina orzularingizga erishasiz...


Bahrom aka yana uzoq gapirdilar, hech kimga o'qib bermagan she'riy mashqlaridan o'qib, san'at asarlaridan ko'rsatdilar. O'z navbatida, o'quvchilar ijodidan ham namunalar tinglab, chizgan rasmlarini tomosha qildilar. Bolajonlarning ishlari ma'qul bo'ldi chog'i, ularni jamlab, universitetning badiiy ko'rgazmalar zalida ko'rgazma tashkil qilishga ko'maklashishga va'da berdilar. Unga «Olam bolajonlar nigohida» degan nom ham topib qo'ydik. Chizgan rasmlaringiz ko'rgazmadan o'rin olishini istasangiz, shoshiling, san'atsevar bolajonlar!

Bizni yana bir narsa: tahririyatimiz qoshidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagi bilan birgalikda «Yosh rassomlar» to'garagingiz ham shakllanib borayotgani juda quvontirdi.




Bizning to'garak

TUSH PAYTI



DARSDA



IBRAT

TOPISHMOQLAR

Mardda bor,
Nomardda yo'q.

(m,m,g)

Goh uzundir, goh kalta,
U turfa ranglarga boy.
Har bir inson husniga,
Albatta qo'shar chiroy.

(soh)

Tunda kelar,
Tongda ketar.

(nb&ll)

Mohira YO'LDOSHEVA,
Toshkentdagi 316 - tayanch
maktabining 6 - «G» sinf
o'quvchisi.

MATEMATIK SOVG'A

Chizdim tasvir: bog', gulzor,
Gul-doira, barglar - kub.
Daraxtlar ham sonlardan,
Tup - murakkab, shoxlar - tub.

Turfa rangli ipak-la,
Tikdim ranglar izidan.
Kashtam sovg'a ayamga,
Matematik qizidan.

Zumrad TO'LABOYEVA,
Toshkent viloyati,
O'rta Chirchiq tumanidagi
14 - maktabning 7 - sinf
o'quvchisi.

DA'VAT

Dil lovullab yonmasa,
Yuragim bor, demagin.
Orzuing mavj urmasa,
Tilagim bor, demagin.

Tog'ni tolqon qilmasa,
Bilagim bor, demagin.
Elga nafing tegmasa,
Keragim bor, demagin.

O'tkir ABDURAHMONOV,
Andijon viloyati,
Buloqboshi tumanidagi
10 - maktab o'quvchisi.



Ona yurti - oltin beshigi
TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOYIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot -
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset
usulida bosildi.
Adadi - 34659.
Korxonada manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № F - 412
Gazetani
Ma'suda
IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75